

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 6, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 6, ISSUE 2



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
№2 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2023-2>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабилова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)

**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Камалова Хатира Сабыровна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафазель Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
и.о. доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)  
**Пармонов Фарход Ярашевич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Толипов Файзулла Саидович**  
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)  
**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Xodjayev Sobir</b> KEKSALIK VA ERTA QARISH SOTSIOGERONTOLOGIK MUAMMO SIFATIDA.....	4
<b>2. To‘raxo‘jayeva Ra‘no</b> DAVLAT XIZMATCHILARINI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH AHOLI ORASIDAGI NOROZILIK KAYFIYATINI OLDINI OLISH MEHANIZMI SIFATIDA.....	11
<b>3. Turdikulov Shuxrat</b> SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING INSTITUTIONAL YONDASHUVI.....	19
<b>4. Mo‘minov Zokirjon</b> ZAMONAVIY SOTSIOLOGIYA:IJTIMOIIY O‘ZGARISHLARDA MOBILLIK.....	26
<b>5. Xoliqnazarov Rashidjon</b> DUNYO VA MDH DAVLATLARI IJTIMOIIY HAYOTIDA ELEKTRON HUJJAT AYLANISH TIZIMINING O‘RNI.....	33
<b>6. Shokirov Shaxrizod</b> HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISHDA JAMOATCHILIK FIKRINI TA‘SIRI BO‘YICHA XALQARO TAJRIBA TAHLILI.....	41
<b>7. Nurullayeva Umida</b> XOTIN-QIZLARNI RAHBARLIK LAVOZIMLARIGA KO‘TARILISHI: TO‘SIQLAR VA IMKONIYATLAR.....	51
<b>8. Nazarova Nilufar</b> STRUCTURAL-FUNCTIONAL ANALYSIS OF ENSURING PROFESSIONAL COMPETITIVENESS OF YOUTH OF UZBEKISTAN.....	62
<b>9. A‘zamova Kumush</b> INSON QADRINI YUKSALTIRISHDA REGULYATIV FUNKSIYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	72
<b>10. Ixtiyarov Farxod</b> INSON KAPITALINI KEYS METODI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNI TADQIQ ETISH: ASOSIIY TUSHUNCHA VA QONUNIYATLAR.....	78
<b>11. Karimova Maftuna</b> RIVOJLANGAN DAVLATLARNING UMUMIIY TA‘LIM MUASSALARIDA BOLALAR ZO‘RAVONLIGINI OLDINI OLISHGA QARATILGAN CHORA –TADBIRLAR.....	90
<b>12. Butoyev Ilxom</b> SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANISHIDA MA‘NAVIYAT TARBIYASINING TUTGAN O‘RNI.....	98
<b>13. Bozorova O‘lmasxon</b> YOSHLAR III RENESSANS MA'RIFIY STRATEGIYASINING HARAKATLANTIRUVCHI KUCHI.....	103


# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Xoliqnazarov Rashidjon**

Fiskal instituti o'quv jarayonini tashkil etish va ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi ilmiy xodimi  
e-mail: abdur79@umail.uz

### DUNYO VA MDH DAVLATLARI IJTIMOIIY HAYOTIDA ELEKTRON HUJJAT AYLANISH TIZIMINING O'RNI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.8399511>

#### ANNOTATSIYA

Maqolada dunyo va MDH davlatlari ijtimoiy hayotida elektron hujjat aylanish tizimlarining o'rni, ishlab chiqilgan eng ommabop dasturlar va davlatlar tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, elektron hujjat aylanish tizimlarining davlatlar taraqqiyotiga ta'siri masalalari bayon qilingan. Mazkur davlatlarda idoralararo elektron hujjat aylanish mexanizmlari, nazorati, bunda davlat hokimiyatining o'rni, xususan Yevropa Ittifoqi davlatlarida AKTni rivojlantirishning asosiy strategik ko'rsatkichlari va dunyoda axborot texnologiyalariga sarfalanadigan xarajatlar tahlil qilingan. Hozirgi axborot almashinuvi sharoitida jahon AKT bozorining globallashtirish jarayonlaridagi o'rni va ahamiyati, aloqa va axborot texnologiyalari xizmatlari segmentlarini boshqarish usullari bayon qilingan. Xulosa qismida O'zbekiston Respublikasida mavjud elektron hujjat aylanish tizimlarini ustuvor rivojlantirish bo'yicha takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** hujjat, elektron hujjat, avtomatlashtirish, ijtimoiy hayot, globallashtirish, tizim, axborot, kommunikatsiya, texnologiyalar, infratuzilma, ma'lumot, mablag', elektron raqam, qog'ozli hujjat.

**Халикназаров Рашидjon**

Научный сотрудник отдела организации образовательного процесса и контроля качества образования  
Фискального института  
e-mail: abdur79@umail.uz

### РОЛЬ СИСТЕМЫ ЭЛЕКТРОННОГО ДОКУМЕНТООБОРОТА В ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ МИРА И ГОСУДАРСТВ СНГ

#### АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается роль системы электронного документооборота в общественной жизни мира и стран СНГ, наиболее популярные разрабатываемые программы и принимаемые государствами нормативно-правовые документы, влияние систем электронного документооборота на развитие государств. Анализируются механизмы межведомственного электронного документооборота странах, контроль, роль государственной власти, в частности, основные стратегические показатели развития ИКТ в странах ЕС и мировые расходы на информационные технологии. В условиях современного информационного обмена

описаны роль и значение мирового рынка ИКТ в процессах глобализации, методы управления сегментами услуг связи и информационных технологий. В заключении представлены предложения по приоритетному развитию существующих систем электронного документооборота в Республике Узбекистан.

**Ключевые слова:** документ, электронный документ, автоматизация, общественная жизнь, глобализация, система, информация, связь, технологии, инфраструктура, информация, средства, электронный номер, бумажный документ.

**Khaliknazarov Rashidjon**

Fiscal Institut scientific worker of  
Department of organization of the educational  
process and quality control of Education  
e-mail: abdur79@umail.uz

## ROLE OF ELECTRONIC DOCUMENT MANAGEMENT SYSTEM IN PUBLIC LIFE OF THE WORLD AND CIS STATES

### ANNOTATION

The article examines the role of the electronic document management system in the public life of the world and the CIS countries, the most popular programs being developed and legal documents adopted by states, the influence of electronic document management systems on the development of states. The mechanisms of interdepartmental electronic document management in these countries, control, the role of government in this, in particular, the main strategic indicators of ICT development in the EU countries and global spending on information technology are analyzed. In the conditions of modern information exchange, the role and importance of the world ICT market in the processes of globalization, methods of managing segments of communication services and information technology are described. In conclusion, proposals are presented for the priority development of existing electronic document management systems in the Republic of Uzbekistan.

**Key words:** document, electronic document, automation, public life, globalization, system, information, communication, technology, infrastructure, information, tools, electronic number, paper document.

### KIRISH.

Ma'lumki, mamlakatimizda zamonaviy AKT o'rni tobora ortib borayotgani, zarur axborotlardan tezkor xabardor bo'lish, turli interaktiv xizmatlardan foydalanish imkonini yaratmoqda. Bu esa, respublikamizdagi turli korxonalar, tashkilot va muassasalarda faoliyat olib boradigan ishchi xizmatchilarning shu jumladan, fuqarolarimizning zamonaviy AKTdan samarali foydalanishlariga keng sharoit yaratadi. Korxonalar va tashkilotlar elektron hujjat aylanishi va boshqaruvida AKTni qo'llanilishi shaffof fuqarolik jamiyatini tashkil etishga, davlat boshqaruvi apparati samaradorligini oshirishga, davlat sektori xarajatlarini kamaytirishga, davlat organlari fuqarolik va xo'jalik subyektlari bilan o'zaro ta'sirini yaxshilashga xizmat qiladi [1].

Bugungi kunda AKTni rivojlantirish va tadbiq etish uchun respublikamizda bir qator qonun va qonun osti hujjatlari ishlab chiqilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 28-aprelda "Raqqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4699-sonli qaror imzolandi. Bunga ko'ra, 2023-yilga kelib O'zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi raqqamli iqtisodiyot ulushini 2 barobar, elektron davlat xizmatlari sonini esa 376 taga yetkazish, 2023-yilda ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 barobarga oshirish va ularning eksportini 100 million dollarga yetkazish orqali raqqamli tadbirkorlikni rivojlantirish ham ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, Prezidentimizning 2020-yil 5-oktyabrdagi 6079-sonli Farmoni bilan "Raqqamli O'zbekiston – 2030" milliy strategiyasi tasdiqlanib, 2030-yilda raqqamli iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi 30 foizni tashkil etishi va unda raqqamlashtirishni rivojlantirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar hududlar kesimida batafsil yoritib berilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, hozirgi kunda davlat hokimiyat organlari va boshqaruvda elektron hujjat aylanuvi qulay strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunday muammolar yechimini topishda xalqaro amaliyot natijalaridan foydalangan maqsadga muvofiqdir. Hujjat aylanuvi tizimlarini dastlab ishlab chiqilgan talablarga mosligi bir qancha elektron hujjat aylanuv tizimlarini (EHAT) o'rganish va baholash orqali amalga oshiriladi. EHAT asosiy yo'nalishlari—elektron hujjatlarni yaratish va saqlash hamda ularning hayotiy siklini boshqarish hisoblanadi. Hozirda har qanday korxon va tashkilot ish faoliyatida qog'ozli hujjat aylanuvini keskin qisqartirish hamda korxonalararo qog'ozsiz elektron hujjat aylanuvini yo'lga qo'yish kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, hujjat - matn, tovush yoki tasvir shaklida yozilgan axborot bo'lib, zamon va makonda uzatish hamda saqlash va jamoat tomonidan foydalanish uchun mo'ljallangan moddiy obyekt hisoblanadi. Elektron hujjat esa elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan axborotdir. Elektron hujjat texnika vositalaridan va axborot tizimlari xizmatlaridan hamda axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda yaratiladi, ishlov beriladi va saqlanadi.

Odatda hujjatlarni an'anaviy tarzda almashish jarayonida pochta xizmati muhim rol o'ynaydi. Elektron hujjat aylanishi esa elektron hujjatlarni axborot tizimi orqali jo'natish va qabul qilib olish jarayonlari yig'indisidan iborat bo'ladi.

### **ASOSIY QISM.**

Elektron hukumatning rivojlanishi har bir mamlakatda turlicha kechmoqda. Xususan, BMT har ikki yilgi xalqaro darajada elektron davlatni rivojlanish indeksi bo'yicha o'tkaziladigan monitoringida e-Government Readiness Index (e-GRI) 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi 193 ta davlat ichida 69 o'rinni egalladi [2].

Jahonda elektron hujjat aylanma sohasida yuzlab kompaniyalar ilovalar ishlab chiqishi bilan shug'ullanib kelmoqda, jumladan ACS Software, Action Technologies, Adobe, Artesia, AXS-One, BroadVision, Cyco, Cypress, Datamax Technologies, Datawatch, Divine, Documentum, Dynamic Imaging, Eastman Software, Excalibur, FileNet, Hyland Software, HP/Dazel, Hummingbird, Gauss Interprise, IBM, Ideal, Identitech, iManage, Interlucent Internet Solutions, Interwoven, InterTech, Ixos Software, Jetform, Keyfile, Kofax, Lotus Development, Microsoft, Mobius Management Systems, Novell, OIT, OpenText, Optio Software, Optika, Oracle, OTG, Plexus, Radnet, RedDot Solutions, Siemens Nixdorf, SER Macrosoft, SER Solutions, Saperion, Saros, Staffware plc, Stellent, Symantec, Tower Software, Tower Technology, TrueArc, TSP; Unisys, Vignette, Westbrook Technologies va boshqalar [3].

Tahlillar asosida 2023-yil holatiga ko'ra 15 ta eng yaxshi elektron hujjat aylanish tizimlarini misol sifatida ko'rish mumkin: PandaDoc, Juro Contract Automation, Oneflow, PaperSave, Qoppa PDF Studio, Vitrium Security, ContractZen, Encyro, ContractWorks, Filemail, eFileCabinet, Templafy, Samepage, Synology Drive, Wondershare PDFelement Pro [4]. Ushbu dasturiy ta'minotlar foydalanuvchilarga hujjatlarni yaratish va almashish, ularni bulutda saqlashni qo'llab-quvvatlash kabi hamda boshqa bir qancha xususiyatlarga ega.

2022-yilning eng yaxshi elektron hujjat aylanishi tizimi PandaDoc bo'lib, foydalanuvchilarga andozalar va oldindan o'rnatilgan kontent bloklari orqali turli xil hujjatlarni qisqa vaqtlarda yaratish imkonini beruvchi veb-texnologiyaga asoslangan hujjat boshqaruvi tizimi hisoblanadi. Shu bilan birga, u savdo, marketing va buxgalteriya hisobi uchun ko'plab uchinchi tomon ilovalari bilan mahalliy integratsiya asosida ham ishlaydi hamda ma'lumotlarni import qilishni yengillashtiradi [4].

AKTdan foydalanish darajasi yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan davlatlar misolida Daniya, Finlandiya va Gollandiyani ko'rish mumkin. Ushbu mamlakatlarda AKT soxasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazilib, ularda asosan 4 ta ko'rsatkich bo'yicha jamiyat hayotida AKTni rivojlanish darajasi belgilanganligi aniqlangan. Bu ko'rsatkichlar inson kapitali, Internetga ulanish, raqamli texnologiyalarning integratsiyasi va Raqamli davlat xizmatlaridan iborat [7].

Janubiy Koreya qisqa muddat ichida rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shildi va hozirda TOP 5 talikda o'z o'rnini topdi. Seul Milliy Universitetining biznes boshqaruvi professori Li Kyung

Mukning aytishicha, Janubiy Koreyada “Kelajak uchun ilmiy-tadqiqot va (R&D) izlanish va tadbiiq qilish” ishlari juda muhim degan umumiy kelishuv mavjud. Koreya hukumati tomonidan taklif qilingan birinchi yirik sarmoya 1961-yilda boshlangan Pak Chon Xi prezidentligi davriga to‘g‘ri kelgan. 1966-yilda Koreya Fan va Texnologiya Instituti, bir yildan keyin esa Fan va Texnologiya vazirligi tashkil etilgan. Janubiy Koreya dunyodagi eng yaxshi 10 iqtisodiy davlatdan biri xisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasida 2009-yilning 22-sentyabrida “Idoralararo elektron hujjat aylanishi tizimi to‘g‘risida nizom” tasdiqlangan va ushbu nizomga muvofiq idoralararo elektron hujjat aylanishi ishtirokchilari bo‘lib, davlat hokimiyatining federal organlari, Rossiya Federatsiyasi Prezidentining Ma‘muriyati va Rossiya Federatsiyasini Hukumat Apparati hisoblanadi.

“Elektron Belarus” davlat dasturini amalga oshirish doirasida Belarus Respublikasi davlat organlarining idoralararo elektron aylanishi tizimi sinov foydalanish uchun topshirildi. Dasturni ishlab chiqishdan maqsad davlat boshqaruvi masalalarini yanada tezkor va samarali hal qilish zarurati bo‘ldi. 75 ta davlat idoralari va tashkilotlarini birlashtirgan integratsiyalashgan axborot maydoni amalga oshirilgan bo‘lib, bu tashkilotlar orasida Belarus Respublikasi Prezidenti Ma‘muriyati, Vazirlar Kengashi apparati, Belarus Respublikasining barcha vazirliklari, Minsk shahri va barcha viloyat ijroiya qo‘mtalari, respublikani yetakchi muassasalari va korxonalari, Belarus Respublikasi Milliy banki va bank tizimidagi yetakchi tijorat tashkilotlari bor.

Qozog‘iston Respublikasida “Zerde” – yirik AT xoldinglardan biri bo‘lib, AKT sohasidagi milliy rivojlanish instituti, elektron hukumatning xizmat integratoridir. Kompaniya 2008-yilda tashkil etilgan bo‘lib, elektron hukumatni rivojlantirish bilan shug‘ullanadi va davlat organlarining AT-arxitekturasini yaratadi. U “Raqamli Qozog‘iston” davlat dasturini amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni olib boradi. AT -texnologiyalar bozorini rivojlantirish va ilg‘or loyihalarni amalga oshirish bilan shug‘ullanadi. Xolding faoliyatining yana bir muhim yo‘nalishi – Qozog‘istonda AT sanoatning eksport salohiyatini rivojlantirish bo‘lgan. Xolding tarkibiga 4 ta sho‘ba korxonasi: “Milliy axborot texnologiyalari” AJ, “Astana Hub” AT-startaplar xalqaro texnoparki, “Qazinnovations” innovatsiyalarni rivojlantirish milliy agentligi AJ, Ostona AT universiteti kiradi. “Zerde” xoldingining sof foydasi – 6,35 million dollarni, jamlangan foydasi – 13,1 million dollarni, ishchilar soni esa 2300 nafarni tashkil etadi.

Yirik loyihalaridan eGov.kz davlat xizmatlari portali va eGov Mobile mobil ilovasi, davlat organlarining AT-arxitekturasi, loyihalarni boshqarish, havo yuklarini tashish sohasida qog‘ozsiz hujjat aylanishi, texnik ko‘rikdan o‘tkazish uchun yagona AT kabilar alohida e’tirofga loyiq. eGov Mobile mobil ilovasi – smartfonlar orqali davlat va elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatishga mo‘ljallangan. Jami foydalanuvchilar soni – 8,4 mln, ko‘rsatiladigan xizmatlar soni – 113 ta, 2021-yilda 11,4 mln. xizmat ko‘rsatilgan.

"Raqamli hujjatlar" – eGov Mobile ilovasida shaxsiy elektron hujjatlarni saqlash xizmati bo‘lib, hozirda jami 4,6 million foydalanuvchisi mavjud. Uning ilovasida 15 turdagi raqamli hujjatlar ya‘ni shaxsni tasdiqlovchi guvohnoma, haydovchilik guvohnomasi, tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma, nikoh guvohnomasi, texnik pasport, KOVID-19 uchun PZR testi natijasi, emlash pasporti va boshqalar mavjud.

Kommunal xizmatlar uchun yagona hisob-kitob markazi orqali elektr energiyasi, issiq va sovuq suv, gaz, kanalizatsiya va chiqindilar uchun to‘lovni bitta chek orqali amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari, yer, mol-mulk, transport soliqlari, kabel televideniyesi va boshqalar uchun to‘lovlarni ham yagona kvitansiyaga kiritish rejalashtirilgan.

Raqamlashtirish va elektron hukumat tizimidagi bu kabi ilg‘or loyihalar BMTning 2020-yilgi elektron hukumat reytingida Qozog‘istonning 29-o‘ringa (MDHda 1-o‘rin, 10 pog‘ona yuqoriga) ko‘tarilishiga sabab bo‘lgan [8].

Daniya elektron hujjat aylanishi bo‘yicha boy tajribaga ega davlat hisoblanadi. Bu mamlakatda elektron hujjat aylanishi natijasida yiliga 100 million yevro mablag‘ iqtisod qilinmoqda. Bugun Janubiy Koreya, Chili, Meksika, Braziliya kabi davlatlar ham elektron hujjat tizimini yo‘lga qo‘ygan. Xalqaro elektron hujjat aylanishi — turli mamlakatlarning kontragentlari bilan hujjatlarni almashish imkoniyatini beradi. Ushbu dastur Kontur.Diadok 2018-yil boshida ishga tushirildi.

Birinchi transchegaraviy EHA Megafon va Huawei kompaniyalari o'rtasida buyurtmalar va dastlabki buxgalteriya hujjatlarini muvaffaqiyatli imzoladilar.

Xalqaro elektron hujjat aylanishi orqali Rossiya va 30 ga yaqin mamlakatlardan kelgan kontragentlar Diadok tizimida hujjatlarni almashishlari mumkin. Unda shartnomalar, spetsifikatsiyalar, shartnomalar, invoyslar, ishonchnomalar, sertifikatlar, topshiriqlar va boshqa hujjatlarni yuborish va qabul qilish mumkin [10].

Ukraina Prezidenti 2021-yil 6 avgust kuni elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlarini tartibga soluvchi yangi qonunni imzoladi. Qonun elektron hujjat aylanishini amalga oshirishni nazarda tutadi. Shu bilan bir qatorda davlat organlaridan jismoniy va yuridik shaxslardan hujjatlarni qog'ozda taqdim etishni talab qilishni taqiqlaydi. Ish jarayonini tashkil etishga bunday yondashuv taqdim etilayotgan elektron xizmatlar sonini oshiradi, shuningdek, kelajakda korrupsiya komponentini minimallashtiradi va nihoyat yo'q qiladi. Raqamli rivojlanish vazirligi allaqachon inson omilini to'liq bartaraf etish maqsadida xizmatlarni avtomatlashtirish bo'yicha faol ish olib bormoqda. Xizmatlarni raqamlashtirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va 2024-yilgacha yakunlanishi rejalashtirilgan [9].

Jahon AKT bozori aloqa va axborot texnologiyalari xizmatlari segmentlarini (kompyuterlar, tarmoq uskunalari, dasturiy ta'minot, AT xizmatlari) o'z ichiga oladi.

AKT sohasida global miqyosda kompaniyalar qo'shilishi va xarid etilishi bo'yicha operatsiyalar hajmi 2021-yil oxirida 1 trillion dollarga yetdi, bu 2020-yilga nisbatan qariyb 30 foizga ko'pdir. Bunday ma'lumotlar 2022-yil may oyi boshida tahlilchilar tomonidan e'lon qilingan. 2021-yilda jahon AKT bozori hajmi 4,24 trillion dollarga yetdi, bu 2020-yilgi ko'rsatkichdan 9 foizga ko'pdir.

Bunday ma'lumotlar Gartner tahlilchilari tomonidan 2022-yil 18-yanvarda e'lon qilingan. Ularning hisob-kitoblariga ko'ra, ko'rib chiqilayotgan bozordagi eng katta xarajatlar aloqa xizmatlariga to'g'ri kelgan (1,44 trillion dollar). 2020-yilga nisbatan segment 3,4% ga oshdi. Shu bilan birga, korporativ toifadagi dasturiy ta'minot savdosi eng yuqori o'sish sur'atlarini ko'rsatdi: 2021-yilda ular 14,4 foizga o'sgan va 604,95 milliard dollarga yetgan. AT uskunalari (kompyuterlar, smartfonlar va boshqalar) sotuvi 2021-yil yakuniga ko'ra 13 foizga o'sdi va 787,42 milliard dollarni tashkil etdi. 2021-yil oxiriga kelib, mutlaq ko'rsatkich 1,19 trillion dollarga yetdi. Ma'lumotlar markazlari tizimlari bozorida kompaniyalarning xarajatlari 2021-yilda 11,4 foizga o'sdi va 216,34 milliard dollarga teng bo'ldi.

**1-jadval.**

**Dunyoda ATga sarflanadigan harajatlar va prognozlar (million dollarda)**

	2021-yil harajatlar	2021-yil o'sish (%)	2022-yil harajatlar	2022-yil o'sish (%)	2023-yil harajatlar	2023-yil o'sish (%)
Data markaz tizimlari	216,337	11.4	226,475	4.7	237,021	4.7
Dasturiy ta'minot	604,946	14.4	671,732	11.0	751,937	11.9
Uskunalar	787,417	13.0	813,699	3.3	804,253	-1.2
<b>AT xizmatlar</b>	<b>1,186,103</b>	<b>10.7</b>	<b>1,279,737</b>	<b>7.9</b>	<b>1,391,742</b>	<b>8.8</b>
Aloqa xizmatlari	1,444,324	3.4	1,462,712	1.3	1,494,167	2.2
<b>Umumiy AT:</b>	<b>4,239,127</b>	<b>9.0</b>	<b>4,454,354</b>	<b>5.1</b>	<b>4,679,119</b>	<b>5.0</b>

2022-yil statistikasini Synergy Research Group tomonidan olib borilgan tadqiqotidan global AKT infratuzilmasi kapital xarajatlari 2022 yilda 9 foizga oshganligini ko'rish mumkin. Uning hisoboti 2023 yil yanvar oyi oxirida chop etilgan. Xarajatlar gipermezonlar muhitida (AWS va Microsoft Azure kabi yirik ma'lumotlar markazi operatorlari) va korporativ sektorda hisobga olinadi. Shu bilan birga, telekommunikatsiya sohasida xarajatlar 2022 yilda 4 foizga kamaydi. Belgilangan uchta segmentda 2022 yilda infratuzilma xarajatlari 700 milliard dollarga yetdi. Ma'lumotlar

markazlari operatorlari va gipermezon platformalari umumiy xarajatlarning 29% ni tashkil etganligini ko'rish mumkin, bu ko'rsatkich 2016-yilda 13 foizni tashkil qilgan edi.

Olti yil davomida (2016-yildan beri) korporativ sektorning xarajatlarning umumiy miqdoridagi ulushi 29 foiz atrofida o'zgarib turdi, telekommunikatsiya kompaniyalarining ulushi esa 58 foizdan 42 foizga tushdi. 2016 yildan boshlab gipermezonlar segmentida kapital xarajatlar yiliga o'rtacha 20% ga, korporativ AT xarajatlari esa o'rtacha 6%ga oshdi. Telekommunikatsiya sohasiga investitsiyalar bir xil darajada saqlanib qoldi. Birgalikda xarajatlar 2016 yildan 2022 yilgacha yiliga o'rtacha 6% ga oshdi.

2023 yil 18-yanvarda Gartner global AKT bozorini o'rganish natijalaridan 2022 yilda sanoat hajmi pasayganini ko'rish mumkin. Bu beqaror iqtisodiy vaziyat va yuqori inflyatsiya bilan bog'liq bo'lib, bu iste'molchilarning xarid qobiliyatini pasaytirishda davom etmoqda. Gartner statistikasi ma'lumotlar markazlari, barcha turdagi elektron qurilmalar, dasturiy ta'minot, AT xizmatlari va aloqa xizmatlari uchun tizimlar xarajatlarini hisobga oladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2022 yilda ko'rsatilgan tarmoqlar bo'yicha jami xarajatlar 4,39 trillion dollarni tashkil qilgan. Bu 2021 yildagi natijadan 0,2 foizga kam.

Dell'OroGroup hisob-kitoblariga ko'ra, 2027-yilga borib Data markazlarga global sarmoya 400 milliard dollarga yetadi. Gibril bulut konsepsiyasi bu sohada xarajatlarning o'sishini rag'batlantiradi. Makroiqtisodiy omillar Data markazlariga qisqa muddatli investitsiyalarga to'sqinlik qilishi mumkin, ammo kelajakda o'sish taxmin qilinmoqda. Tahlilchilarning fikricha, 2027-yilga kelib periferik hisoblashlar umumiy ma'lumotlar markazi infratuzilmasi xarajatlarning 8 foizini tashkil qiladi.

Gartner hisob-kitoblariga ko'ra, 2022-yilda kommunikatsiya xizmatlari segmentidagi xarajatlar taxminan 1,42 trillion dollarni tashkil etdi, bu yillik hisobda 2,4 foizga kamaydi. Yana 1,24 trillion dollar barcha turdagi AT xizmatlari uchun sarflanib, 2021-yilga nisbatan 3 foizga ortiq. Dasturiy ta'minot xarajatlari 7,1 foizga oshib, 783,5 milliard dollarga yetdi. Barcha turdagi elektron qurilmalar sotuvi 10,6 foizga – 722,2 milliard dollargacha kamaygan. Ma'lumotlar markazlari tizimlari segmentida 12 foizga – 212,4 milliard dollargacha o'sish qayd etildi, bu bulutli platformalar va yuqori unumli hisoblash infratuzilmalarining jadal rivojlanishi bilan bog'liqdir. Tahlilchilarning taxminlariga ko'ra, global miqyosda elektronika va gadjetlarga talab 2023 yilda pasayishda davom etadi. 2022 yilga nisbatan pasayish 5,1 foizni tashkil qilishi mumkin va yakuniy natija 685,6 milliard dollarni tashkil etadi. AT-sanoatning barcha boshqa segmentlari o'sishni ko'rsatadi. Shunday qilib, dasturiy ta'minot sohasida savdo hajmi 9,3 foizga – 856 milliard dollargacha oshishi taxmin qilinmoqda. AT-xizmatlari 1,31 trillion dollar daromad keltiradi – yillik hisobda 5,5%. Aloqa xizmatlari sohasida xarajatlar 1,42 trillion dollar miqdorida qoladi. Data markazlari tizimini yetkazib berish yiliga 0,7 foizga oshib, 213,9 milliard dollarga yetadi. Umuman olganda, 2023 yilda AKT bozorining hajmi 2022 yilga nisbatan qariyb 2,4 foizga o'sgan holda 4,5 trillion dollarni tashkil qilishi mumkin.

Rossiyaning Ukrainadagi maxsus operatsiyasi global AKT sanoati 2022 yilda taxminan 5,5 milliard dollar yo'qotishiga olib keladi. Bu 2022 yil may oyida tahlilchilar tomonidan taxmin qilingan.

Tadqiqotda aytilishicha, 2022-yil oxirigacha Yevropada AKT xarajatlari 2 foizga oshadi, ilgari esa 3,7 foiz o'sish kutilgan edi. Markaziy va Sharqiy Yevropada bozor 10% ga, Rossiyada – 25% ga, Ukrainada – hammasi 54% ga cho'kadi.

O'zbekistonda "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi mustaqil tashkilotlar o'rtasida qog'ozsiz hujjat almashinuvini qonuniy hal etib, bu muammoni qisman bo'lsada hal qilishga asos bo'ldi.

O'zbekiston bozorida axborot texnologiyalari vazifalarini, ularni modifikatsiyalarini amalga oshiruvchi turli ishlab chiqaruvchilarni quyidagi yechimlari taqdim etilgan: E-hujjat (InSoftServis, O'zbekiston), Germes (BAIK Technologies O'zbekiston), DocFlow (Program Solution O'zbekiston), Yevfrat (Cognitive Technologies Rossiya), Delo (EOS Rossiya), Fido-docflow (Fido Biznes O'zbekiston), SharePoint server 2007 (MOSS) (Microsoft AQSH), Lotus Notes (IBM AQSH) va boshq.

Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasida bir nechta davlat tashkilotlarida elektron hujjat aylanishi tizimi joriy etilgan va foydalanilmoqda.

Davlat va joylardagi hukumat boshqaruv organlarida AKTni keng joriy etish dasturi asosida bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgan va elektron hujjat aylanishni shakllantirish va Internet tarmog‘ida axborot resurslarini doimo yangilab borish ishlari olib borilmoqda. O‘zbekistonda elektron xukumatni joriy etish va rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan yirik loyihalar sifatida quyidagilarni ko‘rish mumkin:

### 2023-yil 21-iyul holatiga

my.gov.uz	Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (447 ta xizmatlar mavjud)
data.egov.uz	Ochiq ma’lumotlar portali (8396 ta ma’lumotlar tuplamlari)
regulation.gov.uz	Me’yoriy-huquqiy xujjatlar loyihalarini muhokama qilish portali (20190 ta muxokamalar yakunlangan)
license.gov.uz	“Litseziya” axborot tizimlari komplekti (130290 ta arizalar qabul qilingan)
birdarcha.uz	“Yagona darcha” markazlari faoliyatini avtomatlashtirish bo‘yicha axborot tizimi (Ro‘yxatdan o‘tgan tadbirkorlik sub‘ektlari YATT 1269544 ta, Yuridik shaxs 581861)

Bugungi kunda davlatimizda hujjatlarni elektron aylanishiga alohida e’tibor berish natijasida hujjatlar yo‘qolishining oldini olish va tezkorlikni ta’minlash maqsadida tizimni avtomatlashtirish va elektron tartibni tashkillashtirish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasidan ma’lum bo‘ldiki, elektron hujjat aylanishi davlat byudjeti sarfini iqtisod qilishga va vaqtni tejashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda hujjatlar elektron aylanishiga o‘tishi natijasida tadbirkorlarga bir qator qulayliklar yaratildi. Masalan, my.gov.uz – yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining maqsadi fuqarolar va tadbirkorlarga interaktiv davlat xizmatlarini ko‘rsatishdir. Yagona portal orqali 120 dan ortiq davlat organlariga bevosita elektron tarzda murojaat qilish imkoniyati yaratilgan. Elektron hujjat aylanishidan tadbirkorlik subyektlari bir qator hisobot va hujjatlarni topshirishda foydalanib kelmoqda. Jumladan, tadbirkorlik subyektlari o‘z shaxsiy kabineti orqali soliq to‘lovlarini amalga oshirishi, shuningdek, qonunchilikda nazarda tutilgan 12 turdagi elektron hujjatlar va 27 turdagi hisobotlarni elektron tartibda taqdim etishi mumkin. Qolaversa, bojxona sohasida 20 ga yaqin xizmatlar, tovarlarni elektron shaklda deklaratsiyalash tartibini, bank sohasida esa “internet banking”, kredit olishga onlayn arizalar berish, davlat xizmatlari sohasida elektron ariza yoki so‘rovnomalar berishni misol tariqasida keltirish mumkin.

Elektron shaklda xujjatlar aylanishi tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda, jumladan:

- ko‘p vaqt sarflanishining oldini oladi;
- mablag‘lar sarf xarajatlarini kamaytiradi;
- davlat organlari faoliyatida shaffoflik ta’minlanishi va hujjatlar aylanishini nazorat qilishni osonlashtiradi;
- hujjatlar va axborotlar xavfsizligini ta’minlaydi;
- tashkilotlarda xodimlar ijro intizomini mustaxkamlaydi;
- tadbirkorlik subyektlariga masofadan turgan holda boshqa hamkorlari bilan elektron tartibda shartnoma tuzish imkoniyatlarini yaratib beradi.

Demak, aytish mumkinki, elektron hujjat aylanishi jismoniy va yuridik shaxslarga har tomonlama qulayliklar yaratib, tadbirkorlik subyektlarining biznes faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi. Tadbirkorlik subyektlarining vaqtini va xarajatlarini tejashda qo‘l keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Ochiq ma’lumotlar portali ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda “Elektron hukumat” portalidan foydalanuvchilar soni 12,5 million nafarni tashkil etib, aholining 67 foizini tashkil etadi[11].

Portalda keng tarqalgan xizmatlar:

- Tug‘ilganlik haqidagi guvohnomani ro‘yxatdan o‘tkazish;
- Kadastr pasportini shakllantirish;
- Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish;
- Chet tilini bilish darajasini aniqlash;
- Ichimlik suvi hisoblagichini qiyoslashdan o‘tkazish (yechish va ulash bilan birga);
- Ko‘chmas mulk obyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishga ariza yuborish;
- elektr tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlarni olish;

#### **XULOSA**

Xulosa sifatida aytish mumkinki, EHAT yaratish va tadbqiq qilish natijasida qog‘oz ko‘rinishidagi hujjatlar aylanishini 90% ga qisqartirish, elektron hujjatlar bilan ishlash intizomini oshirish, hujjatlarni yaratish va qidirish vaqtini 50 %ga qisqartirish, hujjatlarning yo‘qolishini 100%ga kamaytirish mumkun. Shu bilan birga foydalanuvchining tizimga masofadan kirishini ta‘minlash, foydalanuvchi tomonidan bajariladigan harakatlar sonini kamaytirish orqali hujjat aylanish jarayonlarini samaradorligini oshirishdir. Bundan tashqari qog‘oz ish oqimini minimallashtirish orqali qog‘oz materiallari sarfini kamaytirish, avtomatlashtirilgan hisobotlar orqali grafik boshqaruv vositalarining mavjudligi tufayli jarayonlarning boshqarilishi va shaffofligini oshirish, qisqa vaqtda real ma‘lumot olishga erishiladi.

Taklif sifatida aytish mumkinki, garchi respublikamizda xujjat aylanuvi masalalari yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsada, lekin yuqoridan keluvchi topshiriqlarga mos talab qilinayotgan xujjatlarni qisqa vaqt ichida shakllantirish muammolari mavjud. Ushbu muammolarga yechim sifatida korxon va tashkilotlarda yagona ma‘lumotlar bazasini yaratish va ular asosida zaruriy ma‘lumotlarni shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Talab qilingan ma‘lumotlar yagona MBdan topilmagan holda boshqa tashkilotlardan integratsiya orqali xujjatlarni olish masalaga yechim bo‘la oladi. Ushbu yo‘l orqali yuqoridan talab qilinayotgan xujjatlarga qisqa vaqt ichida shaffof ma‘lumotlarni shakllantirishga erishiladi. Shu bilan birga talab qilinish ehtimoli bor ma‘lumotlardan iborat hujjatlarni andozalarini shakllantirish orqali ham qisqa vaqt mobaynida hujjat shakllantirishga erishiladi.

#### **Adabiyotlar/ Literatura/ References:**

1. O‘zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha Ikkinchi milliy sammitda taqdim etilgan “Raqamli rivojlanish tashabbusi dasturi” va Iqtisodiy tadqiqotlar markazining “Elektron hukumatni joriy etish va O‘zbekistonda ma‘muriy islohotlar – o‘zaro aloqa va o‘zaro ta‘sir” deb nomlangan qo‘shma ma‘ruzasi: 2004-yil: sentyabr, DDI, CER.
2. <https://gtmarket.ru/ratings/e-government-development-index>
3. Abidov A.A., Vlasova N.Yu., Jukovskaya I.Ye., Sobirov A.A. Elektron hujjat almashinuvi tizimlari. O‘quv qo‘llanma – T.: IQTISODIYOT, 2019. – 209 b.
4. <https://financesonline.com/best-electronic-document-management-systems/>
5. [www.cyberleninka.ru](http://www.cyberleninka.ru).
6. Козинес Н. В. Особенности правового регулирования трансгранично- электронной торговли: дис. ... канд. юрид. наук. – Москва, 2017 <https://infocom.uz/>
7. [www.eGov.kz](http://www.eGov.kz)
8. <https://legal.ua/ru/>
9. <https://kontur.ru/diadoc/features/mezhdunarodnyy-edo>
10. <https://egov.uz/projects/open-data>.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
ТОМ 6, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
VOLUME 6, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000